



UDK:327.7:341(575.1)

Dilafro‘z ESHANKULOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: d.eshonqulova@uzswlu.uz

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi dotsenti, PhD Sh.Toshpo‘lotov taqrizi asosida

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE FUNCTIONAL INSTITUTIONS OF THE ORGANIZATION OF ISLAMIC COOPERATION IN CONTEMPORARY INTERNATIONAL RELATIONS (CASE STUDY: ICESCO AND IRCICA)

Annotation

The article analyzes the role and significance of the functional institutions of the Organization of Islamic Cooperation (OIC) – ICESCO and IRCICA – in the contemporary international relations system. The study examines their activities in promoting cooperation in education, science, culture, historical heritage, and intercivilizational dialogue, as well as their role in strengthening the political-diplomatic positions of Islamic world countries through “soft power” resources.

Key words: Organization of Islamic Cooperation (OIC), ICESCO, IRCICA, functional institutions, soft power, cultural diplomacy, international organizations, Islamic world, global governance, ummah.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ (НА ПРИМЕРЕ ICESCO И IRCICA)

Аннотация

В статье анализируется роль и значение функциональных институтов Организации исламского сотрудничества (ОИС) – ICESCO и IRCICA – в современной системе международных отношений. В исследовании рассматривается их деятельность по развитию сотрудничества в области образования, науки, культуры, исторического наследия и междивилизационного диалога, а также влияние на укрепление политико-дипломатических позиций стран исламского мира через «мягкую силу».

Ключевые слова: Организация исламского сотрудничества (ОИС), ICESCO, IRCICA, функциональные институты, мягкая сила, культурная дипломатия, международные организации, исламский мир, глобальное управление, умма.

ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTI FUNKSIONAL INSTITUTLARINING ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI (ICESCO VA IRCICA MISOLIDA)

Аннотация

Maqolada Islom hamkorlik tashkiloti (IHT)ning funksional institutlari – ICESCO va IRCICA – zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu institutlarning ta‘lim, fan, madaniyat, tarixiy meros va sivilizatsiyalararo muloqot sohalarida hamkorlikni rivojlantirish, “yumshoq kuch” resurslari orqali islom dunyosi davlatlarining siyosiy-diplomatik pozitsiyalarini mustahkamlashdagi roli ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Islom hamkorlik tashkiloti (IHT), ICESCO, IRCICA, funksional institutlar, yumshoq kuch, madaniy diplomatiya, xalqaro tashkilotlar, islom dunyosi, global boshqaruv, umma.

Kirish. Globallashuv davrida xalqaro munosabatlar murakkablashib, yangi mintaqaviy integratsiya va ko‘p tomonlama hamkorlik shakllari rivojlanmoqda. Xalqaro tashkilotlar global siyosat, iqtisod va madaniy sohalarda muhim ishtirokchiga aylanmoqda. Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) siyosiy, iqtisodiy va madaniy yo‘nalishlarda birdamlikni mustahkamlashda alohida ahamiyatga ega. O‘zbekistonning IHT bilan hamkorligi tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, diniy-madaniy yaqinlik va strategik manfaatlarga asoslanadi.

1969 yildagi Aqso masjididagi yong‘in va arab-isroil ziddiyatlari fonida tuzilgan Islom hamkorlik tashkiloti (o‘shandagi Islom konferensiyasi tashkiloti) islom dunyosi siyosiy birdamligining asosiy institutsional ifodasiga aylandi. IHT 57 a‘zo davlatni birlashtirgan, BMTdan keyingi ikkinchi yirik hukumatlararo tashkilot sifatida global siyosat, xavfsizlik, iqtisodiy va madaniy hamkorlik masalalarida muhim maydon vazifasini bajaradi [10].

IHT tizimidagi funksional institutlar ICESCO (Islamic World Educational, Scientific and Cultural Organization) - IHT huzuridagi fan, ta‘lim, madaniyat, tarixiy meros va sivilizatsiyalararo muloqot sohasida hamkorlikni rivojlantiruvchi xalqaro tashkilot va IRCICA (Research Centre for Islamic History, Art and Culture) – IHT huzuridagi islom tarixi, san‘ati va madaniyatini o‘rganuvchi ilmiy markaz bo‘lib, ushbu ixtisoslashgan organlar sifatida islom dunyosi davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishda markaziy rol o‘ynaydi [8]. Zamonaviy xalqaro munosabatlar sharoitida “qattiq kuch” (Hard Power) vositalari bilan bir qatorda “yumshoq kuch” (Soft Power) resurslari – bilim, madaniyat, qadriyatlar va ramziy kapital – davlatlar va xalqaro tashkilotlarning nufuzini belgilab beradi.

Shu bois, IHTning aynan funksional institutlari misolida (ICESCO va IRCICA) islom dunyosidagi integratsion jarayonlar, global boshqaruvdagi ishtiroki, sivilizatsion o‘zini anglash va islomofobiya, ekstremizm, qochqinlar kabi

murakkab muammolarga jamoaviy javob izlashdagi o'rini ilmiy tahlil etish dolzarb hisoblanadi [2].

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotda Islom hamkorlik tashkiloti funksional institutlari ICESCO va IRCICAning institutsional-huquqiy maqomi, funksional yo'nalishlari, amaliy faoliyati va ular orqali IHTning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o'rni va ahamiyati, O'zbekistonning IHT bilan hamkorligi bo'yicha rasmiy hujjatlar, bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borgan mahalliy olimlar Z.Islomov, Sh.Akmalov, S.Khatamov xorijiy olimlar T.Ali, H.Sultan, Y.Aljamal, M.Harrouk va boshqalarning ishlari tahlil qilingan. Shuningdek, IHT, ICESCO va IRCICAning rasmiy hujjatlari, xalqaro akademik manbalar va a'zo davlatlar tashqi siyosat konsepsiyalaridan foydalanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot IHT funksional institutlari va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni har tomonlama tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, unda tarixiy-tahliliy, tizimli yondashuv, tahliliy-qiyosiy, institutsional va mantiqiy-qiyosiy usullar qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. ICESCO va IRCICAning institutsional maqomi va vazifalari. ICESCO – ta'lim, fan va madaniyat sohasida ixtisoslashgan islomiy xalqaro tashkilot sifatida islom dunyosida ilm-fan taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash, madaniy o'zlikni asrab-avaylash va global mehnat bozori talablariga javob beruvchi ta'lim siyosatini shakllantirishni maqsad qiladi [8]. U islom qadriyatlarini va zamonaviy bilimlar sinteziga asoslangan alohida ta'lim diskursi yaratadi.

ISESKO islom dunyosida ta'lim, fan, madaniyat va kommunikatsiya sohasidagi hamkorlik uchun muhim xalqaro maydon bo'lib xizmat qiladi, davlatlar o'rtasida ishonch muhitini yaratish va global tinchlik hamda sivilizatsiyalararo muloqotni mustahkamlash sari harakat qiladi. Tashkilot ekstremizm va terrorizmga qarshi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, gumanistik tamoyillar orqali kurashish, mos ravishda BMT Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda a'zo davlatlarga ko'maklashishga intiladi [13].

IRCICA esa islom tarixi, madaniyati va san'ati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, qo'lyozmalar va moddiy madaniy merosni himoya qilish, restavratsiya loyihalari, ilmiy nashrlar va ko'rgazmalar orqali IHTning madaniy-simvolik kapitalini kuchaytiruvchi ixtisoslashgan markazdir [9].

Bu institutlar IHT Ustavida nazarda tutilgan ilmiy-madaniy hamkorlik, inson huquqlari, tinchlik va adolat madaniyatini targ'ib qilish, barqaror rivojlanish maqsadlarini qo'llab-quvvatlash kabi vazifalarni amalga oshirishning amaliy instrumentlari hisoblanadi.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda ICESCO va IRCICAning o'rni: IHT sof harbiy-siyosiy blok emas, balki asosan yumshoq kuch vositalariga tayanadi [1]. Ta'lim, fan, madaniyat, madaniy meros va sivilizatsiyalararo muloqot ICESCO va IRCICA faoliyatining markazida turib, IHTning xalqaro imiji, legitimligi va ta'sir doirasini kengaytiradi.

ICESCO ta'lim va fan sohasida a'zo davlatlar o'rtasida hamkorlikni kengaytirish, ilmiy-texnik modernizatsiyani qo'llab-quvvatlash, global barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashgan dasturlarni amalga oshirish orqali islom dunyosidagi salohiyatni safarbar etadi. Bunda u BMT, YuNESKO kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda axborot asri muammolari, ta'limda islohotlar, yoshlar siyosati kabi yo'nalishlarda qo'shma tashabbuslar amalga oshiradi [8].

ICESCO va O'zbekiston: Shuni qayd etish kerakki, 2017-yil 24-may kuni Toshkent Islom universiteti delegatsiyasining Marokashning Rabot shahridagi ICESCO bosh qarorgohiga tashrifi chog'ida ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan memorandum imzolandi [15]. Natijada universitet ICESCO huzuridagi Islom olami

universitetlari federatsiyasining to'laqonli a'zosi maqomini oldi. 2017-yil 4-iyulda Toshkent Islom universitetida ICESCO bilan hamkorlikda maxsus kafedra tashkil etildi. O'zbekistonning ISESKOga a'zo bo'lishi mamlakatda madaniy va ilmiy tashabbuslarni yanada kuchaytirdi. Jumladan, islom merosini o'rganish va targ'ib qilishga ixtisoslashgan qator maxsus ilmiy va ta'lim muassasalari faoliyatini jadallashtirdi. Bular jumlasiga: Xalqaro islom akademiyasi (Islomshunoslik sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlaydi); O'zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazi; Imom Buxoriy, Imom Moturudiy va Imom Termiziy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari (aqida, hadis, fiqh va islom tarixi merosini o'rganish va targ'ib qilishga qaratilgan).

Ushbu markazlar ISESKOning umumiy maqsadlariga mos holda islom sivilizatsiyasi merosini chuqur ilmiy tadqiq qilish, qo'lyozmalarni tarjima qilish, zaif va buzib talqin qilingan g'oyalarga qarshi ilmiy raddiyalar tayyorlash, shu orqali haqqoniy islom qiyofasini namoyon etishga xizmat qilmoqda [12].

IRCICA esa islom sivilizatsiyasi merosini hujjatlash, muhofaza qilish va targ'ib etish orqali islom dunyosi haqidagi salbiy tasavvurlar va islomofobiyaga qarshi ramziy-madaniy javobni shakllantiradi; qo'lyozmalarni restavratsiya qilish, arxitektura yodgorliklarini asrash, xalqaro konferensiyalar va ko'rgazmalar tashkil etish orqali "islom sivilizatsiyasi" brendini mustahkamlaydi [6].

IRCICA va O'zbekiston: IRCICA tadqiqot markazi O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi huzurida 2019 yilda tashkil etilgan (Markaz bilan 2019 yil 19 aprelda Hamkorlik memorandumini imzolangan). IRCICA bilan institutsional hamkorlik doirasida Xalqaro Islom Akademiyasida "IRCICA Chair for Islamic History and Source Studies" mavjud. Markazning asosiy maqsadi — islom tarixi, manbahunosligi, madaniyati va san'atini ilmiy asosda o'rganish, boy tarixiy va ma'naviy merosni saqlash va uni yangi avlodga yetkazish, shuningdek, ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish. Asosiy vazifalari: islom tarixi va manbahunosligi sohasida mutaxassislar tayyorlash; ilmiy tadqiqotlar olib borish va maxsus o'quv kurslarini tashkil etish; PhD va DSc dissertatsiyalariga rahbarlik qilish; xalqaro ilmiy anjumanlar va loyihalarda ishtirok etish.

Markaz O'zbekiston Fanlar akademiyasi institutlari, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, muzeylar, milliy arxivlar bilan hamkorlikda ilmiy va ta'lim loyihalarni amalga oshirish, tarixiy qo'lyozmalarni tadqiq qilish va ilmiy merosni o'rganish hamda jahonga tanitishga ixtisoslashgan bo'lib, xalqaro ilmiy aloqalarni rivojlantirish bo'yicha tashabbuslar IRCICA kabi xalqaro markazlar bilan hamkorlik uchun tabiiy platforma yaratadi [14].

Xalqaro tinchlik, xavfsizlik va inson huquqlari: IHT umumiy umma tasavvuri asosida a'zo davlatlar o'rtasida siyosiy birdamlikka erishishni maqsad qilsa-da, real siyosatda ichki ixtiloflar va geosiyosiy raqobat sabab, uning qattiq kuch va majburlovchi mexanizmlari cheklangan [3], [10]. Shu sharoitda ICESCO va IRCICAning ahamiyati shundan iboratki, ular tinchlik, bag'rikenglik, inson huquqlari va gender tengligiga doir islomiy-etik normalarni ta'lim va madaniyat orqali targ'ib etishadi [5].

IHT Ustavi inson huquqlari, adolat, tenglik va o'z taqdirini o'zi belgilash kabi prinsiplarni ilgari suradi; bu qator jihatlar global va mintaqaviy inson huquqlari hujjatlari bilan yaqinlashuvni namoyon etadi. ICESCO ta'lim orqali huquqiy madaniyatni oshirish, fan-ta'limda teng imkoniyatlar, yoshlar va ayollar huquqlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan dasturlar ishlab chiqadi.

IRCICAning qochqinlar, ayollar va zaif guruhlar bilan bog'liq sohadagi ishi bevosita emas, lekin madaniy merosni muhofaza qilish, ijtimoiy xotirani asrash orqali ijtimoiy barqarorlikka hissa qo'shadi. IHTning kengroq gumonitar faoliyati, ayniqsa qochqin ayollarni himoya qilish borasida, hozircha ko'proq ramziy-etik miqyosda qolmoqda.

IHT 1,8 mlrddan ortiq musulmon aholini ifodalayotgan, to'rt qit'ani qamrab olgan tashkilot sifatida global boshqaruvda, ayniqsa Janub davlatlari va musulmon mamlakatlarning manfaatlarini ifoda etish nuqtai nazaridan muhim o'rin tutadi [10],[1]. IHT va uning funksional institutlari BMT, YuNESKO, YuNISEF kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda inson huquqlari, ta'lim, fan, madaniyat, qochqinlar himoyasi, islomofobiya kabi masalalarda ko'p tomonlama tashabbuslarni amalga oshirmoqda.

Islomofobiya qarshi kurash misolida IHT davlatlar nomidan tashabbuskor, vositachi va trener sifatida chiqib, Fransiyadagi vaziyat bo'yicha siyosiy-diplomatik pozitsiyasini bildirish, jamoat fikriga ta'sir o'tkazish va xalqaro huquqiy-axloqiy standartlar asosida muloqot tashabbuslarini ilgari surgani tahlil qilingan [7]. Bu yerda ICESCO va IRCICA islomofobiyaning ilmiy-madaniy ildizlarini o'rganish, media-ma'rifiy loyihalar orqali xristian-islom muloqotini rivojlantirishda muhim instrumentlar bo'lishi mumkin [6].

Muhokama va natijalar. Mavjud tadqiqotlar IHT va uning funksional institutlari faoliyatida bir qator yutuqlar bilan birga dilemma mavjudligini ko'rsatadi. Bir tomondan, ICESCO va IRCICA islom dunyosidagi ta'lim-fan islohotlari, madaniy-sivilizatsion muloqot, tarixiy merosni muhofaza qilish va global boshqaruvda islomiy ovozni kuchaytirishda muhim platforma ekani ta'kidlanadi. Ikkinchi tomondan, IHTning ichki siyosiy ixtiloflar, iqtisodiy rivojlanish darajasidagi katta tafovutlar, moliyaviy resurslar yetishmasligi va institutsional zaifliklar tufayli ko'pincha deklarativ darajada qolib ketayotgani qayd etiladi. Post-9/11 (2001 yil 11 sentyabr

voqealaridan keyin jahonda, ayniqsa AQSh va uning ittifoqchilarida shakllangan siyosiy, huquqiy, xavfsizlik va xalqaro munosabatlar amaliyotini anglatadi) davri tajribasi, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash, umma birdamligi masalalarida IHT kutilgan darajada samarali emasligi, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda ichki qarama-qarshiliklar jiddiy to'siq bo'layotgani tanqid qilinadi [3].

Shu bilan birga, ICESCO, IHT Ustavi va inson huquqlari o'rtasidagi yaqinlik, ayollar va zaif guruhlarni himoya qilish, ta'limda inson huquqlari madaniyatini shakllantirishga doir tashabbuslar, qochqin ayollar himoyasida IHTning axloqiy-etik majburiyatlari xalqaro insonparvarlik diplomatiyasi uchun muhim resurs sifatida baholanadi [11], [4].

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ICESCO va IRCICA - zamonaviy xalqaro munosabatlarda Islom dunyosi uchun ta'lim-fan, madaniyat va tarixiy meros sohasida ixtisoslashgan, yumshoq kuchni safarbar etuvchi global platformani ta'minlaydi. Shu bilan birga, Islom sivilizatsiyasi merosini himoya qilish va targ'ib etish orqali islomofobiya hamda sivilizatsiyalar to'qnashuvi diskurslariga muqobil ravishda muloqot va o'zaro hurmat madaniyatini ilgari suradi. IHT Ustavi va ICESCO dasturlari orqali inson huquqlari, gender tengligi va barqaror rivojlanish maqsadlarini islomiy-etik mezonlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilinadi. Shu sababli, ICESCO va IRCICA global boshqaruvda Islom dunyosining birlashgan, samarali va ta'sirchan aktor sifatida namoyon bo'lishida muhim vosita hisoblanadi.

Tahlil natijasida shakllangan xulosalarni inobatga olib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

ICESCO va IRCICAning institutsional mustaqilligi va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshirish;

IHT doirasida yagona yumshoq kuch strategiyasi orqali ta'lim, madaniyat, media va diplomatiya sohalarida ICESCO va IRCICA faoliyati uyg'unlashtirilishi.

ADABIYOTLAR

1. Ali, T., & Sultan, H. (2023). Emerging role of the organization of Islamic cooperation in the global governance since 1969. *Cogent Arts & Humanities*, 10. <https://doi.org/10.1080/23311983.2023.2202052>.
2. Aljamal, Y., & Aljamal, M. (2025). The Use of Soft Power by the Organization of Islamic Cooperation. *Politics and Religion Journal*. <https://doi.org/10.54561/prj1901069a>;
3. Asma, O. (2021). The role of Organization of Islamic Cooperation after 9/11 International politics. *Pakistan Journal of International Affairs*. <https://doi.org/10.52337/pjia.v2i2.62>.
4. Harrouk M.R.A. The Role of the Islamic Cooperation Organization's Charter in Promoting the Culture of Human Rights. *Al-Idah*, 2024.
5. Harrouk, M. (2024). The Role of the Islamic Cooperation Organization's Charter in Promoting the Culture of Human Rights. *Al-Idah*. <https://doi.org/10.37556/al-idah.041.02.0835>.
6. Khatamov, S. (2021). The role of icesco in the development of education, science and culture. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10, 51-56. <https://doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00198.1>.
7. Kristiyanto, A., Afifah, P., & Rahmah, S. (2025). The Role and Significance of Organization of Islamic Cooperation (OIC) in Global Issues: A Case Study of Islamophobia in France. *Global Local Interactions Journal of International Relations*. <https://doi.org/10.22219/gli.v4i2.34384>.
8. Krogmann, D. (2021). International Organizations and Education in the Islamic World. *Global Dynamics of Social Policy*. https://doi.org/10.1007/978-3-030-78885-8_7.
9. Liu, Z., & Fan, P. (2018). Islamic Factors in Inter-State Cooperation of the OIC Members. *Asian Journal of Middle Eastern and Islamic Studies*, 12, 1 - 15. <https://doi.org/10.1080/25765949.2018.1439616>.
10. Mustafa, G. (2020). The Organization of Islamic Cooperation (OIC): Challenges for the Islamic World. *Journal of Development and Social Sciences*. [https://doi.org/10.47205/jdss.2020\(1-i\)1](https://doi.org/10.47205/jdss.2020(1-i)1).
11. Pertek, S. (2025). Navigating Displaced Women's Protection in the Muslim world: Analysis of the Organization of Islamic Cooperation. *Politics and Religion Journal*. <https://doi.org/10.54561/prj1901107p>.
12. З.Исломов (2021). Scientific research on the study of the doctrine of maturidiyya in Uzbekistan. *The Maturidiyya*. <https://doi.org/10.47980/moturidiy/2021/1/4>.
13. Ш.Акmalов «Международные и региональные исламские организации» учебник для студентов. Издательство «Замон полиграф». – Т.: 2025г. – 166 ст.
14. Ircica-research centre for islamic history, art and culture International islamic Academy of Uzbekistan IRCICA- research centre for islamic history, art and culture prospectus of ircica chair for islamic history and source studies. <https://iiau.uz/en/news/2893>
15. Toshkent islom universitetida ICESCO kafedrasi ochiladi <https://www.gazeta.uz/oz/2017/05/26/ICESCO/>